

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
№1 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI

Toshkent sh.
Rais – professor N.Q.Xaydarov
Kotib – dotsent A.A.Yuldahev

5 sentabr 2022 yil

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

Kun tartibi:

1. Yangi 2022-2023 o'quv yilida institut jamoasi oldida turgan vazifalar haqida.
Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent S.R.Baymakov
2. Kafedralarning yangi 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik holati haqida axborot.
Axborotchi: O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i t.f.n., dotsent G.E.Tastanova
3. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
4. Turli masalalar

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: Kafedralar va professor –o'qituvchilarning yillik rejalarini bajarilish holati – attestatsiya natijalari

Ma'ruzachi: Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i t.f.d., dotsent U.N.Vohidov

QAROR QILINDI:

1. O'quv jarayoni olib boriladigan barcha binolarda Internet tezligini oshirish, Wi-Fi zonalari sonini ko'paytirish va doimiy ishlab turishi ta'minlansin;

Mas'ul – Raqamli texnologiyalar bo'limi boshlig'i
Muddat – doimiy

2. Fanlarning o'quv adabiyotlar bilan to'liq ta'minlanishiga erishish maqsadida zamonaviy elektron darslik, o'quv qo'llanma va o'quv uslubiy ishlanmalar yaratish ishlari jadallashtirilsin;

Mas'ul – ARM boshlig'i va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

3. Amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalarning sifatini oshirish maqsadida - professor-o'qituvchilarning malaka oshirishi, stajirovkalar, mutaxassislik va pedagogik mahoratini oshirish ishlarini reja asosida tashkil etilsin;

Mas'ul – Malaka oshirish bo'limi boshlig'i va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

4. TDSI ta'lim sifatini nazorat qilish va ichki nazorat bo'limlari dekanat xodimlari ishtirokida 2022-2023 o'quv yilida amaliy mashg'ulot va ma'ruzalar sifatini o'rganish tizimi joriy qilinsin.

Mas'ul – Jismoniy shaxslar bilan ishlash va ichki nazorat bo'limi boshlig'i va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i
Muddat – doimiy

5. Namunali dars beruvchi professor-o'qituvchilarimizni mehnatlari, yaratgan o'quv-uslubiy ishlari uchun rag'batlantirish maqsadida KPI tizimi joriy etilsin

Mas'ul – O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi to'rtinchi masala: Turli masalalar

1. Kafedralar o'quv va ilmiy faoliyatini takomillashtirish maqsadida Fakultet terapevtik stomatologiya kafedrasini, Oftalmologiya, Ginekologiya kursi bilan kafedrasini va 2-son terapevtik yo'nalishdagi fanlar kafedralari bo'linib, yangi Propedevtik terapevtik stomatologiya kafedrasini, Ginekologiya kafedrasini va Ichki kasalliklar kafedrasini tashkil etilsin.

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, hodimlar bo'limi boshlig'i
Muddat – 1 kun muddatda

2. Yangi tashkil etilgan kafedralar moddiy texnik-bazasi yangilansin va o'quv jarayoni uchun zarur barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlansin

Mas'ul – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi va moliya bo'limi boshlig'i
Muddat-1 oy muddatda

3. Yangi tashkil etilgan Propedevtik terapevtik stomatologiya kafedrasiga t.f.d., dotsent U.A.Shukurova, Ginekologiya kafedrasiga t.f.d., professor M.X.Kattaxodjayeva, Ichki kasalliklar kafedrasiga t.f.d., dotsent A.K.Qurbonovlar kafedra mudiri etib tayinlansin.

Mas'ul – Hodimlar bo'limi boshlig'i va moliya bo'limi boshlig'i
Muddat-1 kun muddatda

4. Talabalar turar joyida yashash uchun to'lovlar ikki yuz ming so'mdan amalga oshirilishi rasmiylashtirilsin. Talabalar turar joyi uchun to'lovlar joriy yilning sentabr oyidan boshlab ikki tomonlama «Ijara shartnomasi» tuzilsin va ro'yxatdan o'tkazib imzolansin.

Mas'ul - Ishlar boshqarmasi boshlig'i bosh hisobchi va reja va moliya bo'limi boshlig'i
Muddat-3 kun muddatda

5. N.N.Burdenko nomli Voronej davlat tibbiyot insituti 2-sonli Akusherlik va ginekologiya kafedra mudiri, t.f.d. professor **Yenkova Yelena Vladimirovnani** TDSI Ginekologiya kafedrasini Faxriy professori etib tayinlansin.

Mas'ul - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor
Muddat-1 kun muddatda

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi



N.K.Xaydarov